

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**VETERINARIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**ISMOILOV ADXAM SHUXRATOVICH**

**QORAMOLLAR SINBOVILLARI FAUNASI VA QARSHI KURASH  
TADBIRLARI**

**03.00.06 – Zoologiya (veterinariya fanlari)**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences**

**Ismoilov Adxam Shuxratovich**

Qoramollar sinbovillari faunasi va qarshi kurash tadbirlari ..... 3

**Исмоилов Адхам Шухратович**

Фауна синбовилов крупного рогатого скота и меры борьбы ..... 23

**Ismoilov Adkham Shuhratovich**

Fauna of cattle sinbovills and preventive measures ..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....46

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD. 06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**ISMOILOV ADXAM SHUXRATOVICH**

**QORAMOLLAR SINBOVILLARI FAUNASI VA QARSHI KURASH  
TADBIRLARI**

**03.00.06 – Zoologiya (veterinariya fanlari)**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.1./PhD/V76 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.viti.uz](http://www.viti.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Mavlanov Sabirjan Ibadullaevich**  
veterinariya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Rasulov O'tkir Ilashovich**  
Veterinariya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Vaxidova Dilbar Salimovna**  
Veterinariya fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:** **SamDTU huzuridagi L.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitarn kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.06/29.10.2021.V.139.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «10» 12 soat «14<sup>00</sup>» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141500. Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1-qishlog'i 67 uy. tel.: (+99866) 666-56-60; e-mail: [nivi@vetgov.uz](mailto:nivi@vetgov.uz))

Dissertatsiya bilan Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4690 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 141500. Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1-qishlog'i 67 uy. tel.: (+99866) 666-56-60; faks: (+99866) 666-56-66., e-mail: [nivi@vetgov.uz](mailto:nivi@vetgov.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «11» 27 - kuni tarqatildi.  
(2024 yil «27» 11 dagi № 14 - raqamli reestr bayonnomasi)

  
**B.A.Elmurodov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, vet.f.d., professor

**F.S.Pulotov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, vet.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

**G.H.Mamadullaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d., katta ilmiy xodim

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda zoofil pashshalarning 3 mingdan ortiq turi bo'lib, halq xo'jaligiga ko'rsatadigan salbiy tasirlari oqibatida chorvachilik mahsulotlarining salmoqli qismiga zarar yetkazmoqda. «Xorijiy mamlakatlarda zoofil va sinbovil pashshalar hayvonlarning yillik potensial mahsuldorligini 16 dan 40 foizgacha pasaytirib yuboradi. Masalan, dala pashshalari AQSh chorvachiligiga yiliga 68 million dollar miqdorida zarar yetkazadi, sigirlarning kichik iskab topar pashshalari sut mahsuldorligini 25-50 foizga pasaytiradi va shu bilan birga zarar 730,3 million dollarni tashkil etadi. Angliyada pashshalarning sigirlarga hujumi natijasida yiliga 435 million funt sterling miqdorida sut kam olinadi»<sup>1</sup>. Bundan tashqari, yosh hayvonlarning vazni pasayishi, shuningdek, kasallikning manbalari yuqumli va parazitar kasalliklarining patogenlarini tashuvchisi bo'lib, ko'plab yuqumli va invazion kasalliklarni tarqatadi. Shu sababli qoramollarni parazit hasharotlar tasiridan, xususan, sinbovil pashshalardan himoya qilish dolzarb muammo hisoblanadi.

Dunyo miqyosida hozirgi vaqtda sinbovil pashshalarning infeksiya o'choqlari bilan yaqin aloqasi, yashash joylarini tez-tez almashtirish, uzoq masofalarga parvoz qilish, yuqumli kasalliklarni oson yuqtirish, infeksiyalar va invazyialarning patogenlarini uzoq vaqt ushlab turish qobiliyati - bularning barchasi ko'plab kasallik qo'zg'atuvchilarining, ya'ni kuydirgi, tulyaremiya, oqsil, sil, brusellyoz, qizilcha, cho'chqa isitmasi, anaplazmoz, su-auru, setarioz, stenofilariaz va boshqalarni mexanik o'tkazilishiga hissa qo'shishi jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, qon so'ruvchi sinbovil pashshalarga qarshi kurash chora-tadbirlari va oldini olish usullarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda chorvachilikni rivojlantirish, chorva mollarning mahsuldorligini oshirish hamda aholini sifatli va ekologik toza chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun yaylovlar sharoitida qoramollarda uchraydigan sinbovil pashshalar bilan samarali kurashishning yangi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va soha amaliyotiga tadbiq etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Veterinariya fani va mutaxassisleri oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri chorva mollari orasida uchraydigan va xo'jaliklarga sezilarli iqtisodiy zarar yetkazadigan sinbovil pashshalarga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqishni takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish sanaladi. Hozirda yaylovlar sharoitida sinbovil pashshalarning faunasi, ekologiyasi amalda atroflicha o'rganilmay qolmoqda, shuning uchun ham ularning faunasini o'rganish, ko'payishini oldini olish va qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-martdagi PQ-4841-son «Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019-yil 28-martdagi PF-5696-son «Veterinariya va

---

<sup>1</sup> Кожебаев Б.Ж., Муха (diptera muscidae) как продуцент кормового белка для птиц на востоке Казахстана. дисс. канд. сельскохозяйственных наук. 2003. С.-142.

chorvachilik sohasida Davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-son «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022-yil 8 fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va oziqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»<sup>2</sup>gi, qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan topshiriqlarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqotlari ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining Y. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qishloq xo'jalik hayvonlarining ektoparazitlari faunasi va qarshi kurash tadbirlari bo'yicha xorrijiy olimlardan R.O.Drummond, M.R.Namazi, A.P.Paliy, A.Romero, D.W.Watson, J.Merino Francisco, M.Ж.Аубакиров, М.Ш.Акбаев, Г.А.Веселкин, Л.А.Глазунова, С.В.Енгашев, М.Н.Костина, М.А.Левченко, С.Д.Павлов, Ф.К.Рагимханова, М.А.Сотникова, В.И.Сычевская va boshqalar tomonidan chorva mollarining ektoparazitlari, xususan zoofil va sinbovil pashshalar faunasi, ekologiyasi, biologiyasi, tarqalishi, odamlar va hayvonlarga yetkazadigan zarari hamda ularga qarshi kurashish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar va ilmiy-amaliy ahamiyatga molik natijalarga erishilgan.

Mamlakatimizda gnus, geksapodalar faunasi, ekologiyasi, biologiyasi, patogenezi bo'yicha A.R.Ro'zimurodov, N.A.Azizov, D.S.Vaxidova, A.X.Fayzildinov, Z.M.Mardiev, H.Rahimberdiev, M.Xolboev, E.Qushchanov, R.Jumashov, S.I.Mavlonov va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Biroq, ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra respublikamizda zoofil va sinbovil pashshalar faunasi, mavsumiy dinamikasi, tarqalishi hamda ularga qarshi kurashish bo'yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shu boisdan, qoramollarda sinbovil pashshalarning tarqalishini, faunasini o'rganish va ularga qarshi zamonaviy chora tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Mazkur dissertatsiya ishi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining QXA-9-028 "Qishloq xo'jalik hayvonlarini xavfli parazitoz va tabiiy o'choqli transmissiv kasalliklardan muhofaza qilishning yangi ekologik bezarar, tejamkor va samarali vositalarini tadqiq va joriy qilish" (2015-2017-yy.) va BV-A-QX-2018-2020 "Qishloq xo'jalik hayvonlarini parazitlar kasalliklariga qarshi kurashishning yangi vosita va usullarini tadqiq va joriy qilish" (2018-2020 yy.), AL-442105823 "Qishloq xo'jalik hayvonlarining parazitlar va transmissiv kasalliklar tarqatuvchilari

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

(Arthropoda) ga qarshi mahalliy "Bioinsektitsid" preparatini ishlab chiqarish va joriy etish" (2023-2024-yy.) hamda Araxnoentomologiya va akarologiya laboratoriyasining "Qishloq xo'jalik hayvonlari parazitoz kasalliklari ekogenezi, zamonaviy biokimyoviy kurash chora-tadbirlarini tadqiq va tadbir qilish" topshirig'ining 2021-2025 yillarga rejalashtirilgan ilmiy tadqiqot ishlari loyihalari asosida bajarilgan va mamlakatimizda ushbu soha bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga monand ravishda amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Yaylovlardagi qoramollarda parazitlik qiladigan sinbovil pashshalarning faunasi va mavsumiy dinamikasini o'rganish, ularga qarshi kurashish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yaylovlardagi qoramollarda parazitlik qiladigan sinbovil pashshalar faunasini o'rganish;

dominant sinbovil pashshalarning mavsumiy dinamikasini o'rganish va tahlil qilish;

dominant sinbovil turlarga qarshi kurashish usullarini ishlab chiqish va ekologik bezarar insektitsid vositalardan foydalanish samaradorligini aniqlash;

sinbovil pashshalarga qarshi kurashish usullarini iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari shaxsiy, yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari yaylovlardagi qoramollar, sinbovil pashshalar, ularning tuxumlari, lichinka va imagolari, insektitsid preparatlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** tajriba o'tkazilgan xo'jaliklardagi qoramollar va ularda parazitlik qiladigan sinbovil pashshalar bilan intens va ekstens zararlanish ko'rsatkichlari va ularning faunasi, mavsumiy dinamikasi, bioxilmaxilligi, sistematikasi, hamda Sumi-alfa, Sipermetrin, Karatin-50, Alpha-shakti kabi piretroid preparatlar.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotlarda parazitologik, entomologik, epizootologik, ekologo-faunistik, iqtisodiy tadqiqotlar, umumbiologik va veterinariya parazitologiyasi fanlarining zamonaviy tavsiya va uslubiy qo'llanmalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yaylovlardagi qoramollarda parazitlik qiladigan sinbovil pashshalarning faunasi o'rganilgan va ularning 14 turi aniqlangan;

qoramollar sinbovil pashshalarining mavsumiy dinamikasi yaylovlar sharoitida o'rganilgan va eng yuqori faolligi yoz mavsumida 62,8% ekanligi aniqlangan;

piretroid (Sumi-alfa, Sipermetrin, Karatin-50, Alpha-shakti) preparatlarni qoramollarning sinbovil pashshalariga qarshi insektitsidlik samarasi aniqlangan;

qoramollarning sinbovil pashshalariga qarshi zamonaviy profilaktika chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yaylovlar sharoitida tarqalgan sinbovil pashshalarning turlari va ularning faunasi hamda mavsumiy dinamikasi aniqlangan;

insektitsid (Sumi-alfa, Sipermetrin, Karatin-50, Alpha-shakti) preparatlarining har xil konsentratsiyadagi suvli emulsiyalarining sinbovil pashshalarga nisbatan tasir samaradorligi aniqlangan;

qoramollarning yaylovlardagi yozgi lagerlari hamda fermer xo'jaliklarida piretroid (Sumi-alfa, Sipermetrin, Karatin-50, Alpha-shakti) preparatlarining sinbovil pashshalarga nisbatan tasir samaradorligi o'rganilgan va qo'llash uslubi ishlab chiqilgan;

yangi insektoakaritsid Alpha-shakti preparatining sinbovil pashshalarga qarshi qo'llash bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va veterinariya amaliyotiga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning o'tkazilishi va epizootologik tadqiqotlar, davolash-profilaktika chora-tadbirlarini o'rganishda zamonaviy uslublardan foydalanilganligi, birlamchi ma'lumotlarga statistik ishlov berish va ilmiy tahlil qilish, shuningdek, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqotlar natijalari dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan yuqori baholanganligi va ilmiy ishlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, qoramollar sinbovillari faunasi, mavsumiy dinamikasi va ularga qarshi kurash chora-tadbirlari tizimining nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qoramollarning sinbovil pashshalariga qarshi Sumi-alfa, sipermetrin, Karatin-50, Alpha-shakti kabi insektitsid piretroid preparatlarni sinash bilan bog'liq bo'lgan samarali usullarni amaliyotda qo'llash natijasida chorvachilik xo'jaliklarini sog'lomlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilganligi bilan izoxlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoramollar sinbovillari faunasi va qarshi kurash tadbirlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

«Mahalliy sumi-alfa insektoakaritsidining chorvachilikda ekto- va endoparazitlarga hamda xavfli transmissiv kasalliklarning "vektor" tarqatuvchilariga qarshi kurashda qo'llanilishi» (2015) va «Alpha-shakti preparatining chorvachilikda ektoparazitlarga qarshi qo'llanilishi» (2022) bo'yicha tavsiyanomalar hamda «Yirik va mayda shoxli hayvonlar, ot va tuyalar ektoparazitlariga qarshi kurashish to'g'risida» (2016) yo'riqnoma tasdiqlanib joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 14-avgustdagi 02/23-455-son ma'lumotnomasi). Natijada qoramollarning sinbovil pashshalariga qarshi o'tkazilgan dezinseksiya tadbirlari tufayli sog'in sigirlarni sut mahsuldorligini o'rtacha 10,4 foizga oshishiga va sarflangan 1 so'm xarajatga 4,5 so'm iqtisodiy samara olishga erishilgan;

«Piretroidlar. Tabiiy o'choqli transmissiv kasalliklar muxofazasi» nomli monografiya (2017) chop etilgan. Ushbu chora-tadbirlarni Samarqand viloyatining Payariq, Nurobod, Toyloq tumanlari, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi va Kitob tumanlari chorvachilik xo'jaliklarida va shaxsiy xo'jaliklaridagi (aholi

qaramog'ida) hamda yaylovlardagi qoramollarda parazitlik qiluvchi sinbovil pashshalarga qarshi qo'llash orqali yuqori samaraga erishilgan hamda amaliyotga joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 14-avgustdagi 02/23-455-son ma'lumotnomasi) va ularga qarshi kurashish imkoniyati yaratilgan.

Yaylovlarda hamda chorvachilik, shaxsiy va xususiy xo'jaliklaridagi qoramollarda parazitlik qiluvchi sinbovil pashshalarga qarshi Sumi-alfa (esfenvalerat 20% k.e.) ning 0,012 %, Sipermetrin preparatining 0,015 %, Karatin-50 va Alpha-shakti preparatining 0,03% konsentrat emulsiyalari yuqori insektitsid samara ko'rsatishi aniqlangan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 14-avgustdagi 02/23-455-son ma'lumotnomasi). Natijada qoramollar tanasida parazitlik qiladigan sinbovil pashshalarga qarshi kurashning samaradorligini oshishiga va ularning kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishi natijalari Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining 2015-2023-yillardagi Ilmiy kengashlarida muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari jami 10 ta, jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan 8 ta xorijiy, 7 ta respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 2 ta tavsiyanoma, 1 ta yo'riqnoma va 1 ta monografiya chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tanlangan mavzuning dissertatsiya tadqiqotlari bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti, tadqiqotning predmeti, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, tadqiqot natijalarining nashr etilganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyot manbaalari taxlili**" deb nomlangan birinchi bobi uch qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi "Sinbovil pashshalarning faunasi, fenologiyasi, ekologiyasi, biologiyasi va tarqalishining o'rganilganlik holati" deb nomlangan qismida sinbovil pashshalarning faunasi, fenologiyasi, ekologiyasi, turlari, biologik xususiyatlari, ularni turli biotsenozlarda tarqalishi borasida MDH, xorijlik va mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari keltirilgan. "Sinbovil va zoofil pashshalarning veterinariya va inson

hayotidagi ahamiyati” deb nomlangan ikkinchi qismida respublikamiz va xorijlik ilmiy izlanuvchilarning sinbovil va zoofil pashshalarni hayvonlarga va odamlarga kasalliklarni tarqatish va yuqtirishdagi roli, ular tomonidan chaqiriladigan kasalliklar turlari, kasallangan hayvonlar mahsuldorligini pasayishidan keladigan iqtisodiy zarar ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ilmiy adabiy ma‘lumotlar batafsil yoritilgan. “Sinbovil pashshalarga qarshi kurash chora tadbirlari” nomli uchinchi qismida chorva hayvonlarini sinbovil pashshalardan himoya qilishda qo‘llanilgan preparatlar, ularning qo‘llanilishi, ta’sir mexanizmi, samarasi borasida o‘tkazilgan tadqiqotlarning adabiy manbalari keltirilgan. “Samarqand va Qashqadaryo hududining iqlim - geografik tavsifi” nomli to‘rtinchi qismida tadqiqotlar olib borilgan Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining geografik tuzilishi, iqlim sharoiti, chorvachiligining holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Xususiy tadqiqotlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan joy, ob’ekti, materiallar va qo‘llanilgan uslublar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari 2015-2023 yillar davomida Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Araxnoentomologiya va akarologiya laboratoriyasi, Samarqand viloyatining Payariq, Toyloq va Nurobod tumanlaridagi, Qashqadaryo viloyatining Kitob va Chiroqchi tumanlaridagi chorvachilikka ixtisoslashgan dehqon va fermer xo‘jaliklari fermalari hamda yaylovlarida hamda mazkur hududlardagi aholi qaramog‘idagi qoramollarda olib borildi.

Parazitologik, faunistik, ekologik, fenologik, migratsiya, terapevtik, profilaktik va boshqa tadqiqotlar veterinariya hamda tibbiyotda qabul qilingan (Herbert Ross, Paul De Vach, Г.Я.Бей-Биенко, В.А.Догел, В.Н.Беклемишев, В.В.Яхонтов, Е.Б.Кербабаев, С.Д.Павлов, А.Р.Ро‘зимуродов va boshqa tadqiqotchilar) usullar yordamida olib borildi.

Terilgan hasharot turlari “Синантропные двукрылые фауны СССР”. Изд АН СССР. М. 1956, (А.А.Штакелберг), “Определитель членистоногих вредящих здоровью человека” Медгиз Москва, 1958 (В.Н.Беклемишев), “Определитель насекомых европейской части СССР”, “Наука” первая часть, В том, Ленинград, 1969 (Г.Я.Бей-Биенко), “Определитель насекомых европейской части СССР”, “Наука” вторая часть, В том, Ленинград, 1970 (Г.Я.Бей-Биенко), “Flies and Disease”, Volume I., Princeton University Press, Princeton, New Jersey, 1971 (Bey Bernard Greenberg) kitob va qo‘llanmalarda keltirilgan aniqlagich jadvallar hamda boshqa adabiy manbalar yordamida aniqlandi.

Insektoakaritsidlar samaradorligi “Veterinariyada repellent va insektitsidlar samaradorligini o‘rganish metodik qo‘llanmalari” (А.А.Неpokлонov va bsh., 1998 hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti qo‘llanmalari (VOZ, 1972, 1975 va bsh.) va zararkunandalarning insektitsidlarga individual sezuvchanligi Urbax, Kerber usuli va boshqa metodik qo‘llanmalar asosida o‘rganildi.

Piretroid preparatlarning iqtisodiy samaradorligi «Экономическая эффективность дезинсекции животных пиретроидами» (А.Рўзимуродов, 1988), “Организация и экономика ветеринарного дела” (И.Н.Никитин, 2007), “Экономическая эффективность дезинсекции животноводческих помещений” (М.А.Левченко, Г.Ф.Балабанова, Е.А.Силиванова, 2015) va “Veterinariya

tadbirlarini iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullari” (Oripov A.O., Djabbarov Sh.A., Yo‘ldoshev N.E., Isayev J.M., Ulashov I., 2016) kabi tavsiya va uslubiy qo‘llanmalar asosida o‘rganildi.

Insektoakaritsidlarni hayvonlar organizmida va chorvachilik mahsulotlari tarkibidagi qoldiqlari biologik (D.D.Poloz, 1964) va toksikologik (TJX) xromotografiya usulida o‘rganildi.

Qayd etilgan tadqiqotlar Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Araxnoentomologiya va akarologiya laboratoriyasi xodimlari A.Ro‘zimurodov, F.Pulotov, M.Raximovlarning bevosita ishtirokida va ularning ma‘lumotlaridan foydalanilgan holda bajarildi.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqotlarning natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobining “**Sinbovil pashshalar faunasi va ekologiyasi**” nomli birinchi qismida 2015-2023 yillar davomida Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari hududidagi yaylovlarda, yaylov hududlariga yaqin chorvachilik fermer xo‘jaliklari va aholi xonadonlaridagi qoramollarda olib borildi. Jumladan, Qashqadaryo viloyati Kitob va Chiroqchi tumanlari yaylovlarida hamda yaylov hududiga yaqin chorvachilik xo‘jaliklarida sinbovil pashshalarning faunasini o‘rganish borasidagi tadqiqotlar bayon etilgan.

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar davomida mart oyida havo haroratining salqinligi bois zoobiotsenozlarda sinbovil hasharotlar faolligi past bo‘lib, ular asosan aprel oyidan boshlab faol ucha boshladi. May va iyun oylariga kelib esa sinbovil hasharotlarning maksimal darajada ko‘p uchrashi kuzatildi. 2015-2023 - yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida yaylovlarda *Arthropoda* tipi, *Insecta* sinfi, *Diptera* turkumiga oid 2 oilaga mansub, 6 avlodga tegishli 14 turdagi sinbovil hasharotlar aniqlandi. Aniqlangan turlar orasida Muscidae oilasiga tegishli turlar dominantlik qildi. Calliphoridae oilasiga tegishli turlar subdominantlik qildi.

Samarqand viloyati Payariq va Nurobod tumanlaridagi yaylovlarida jami 3512 nusxada sinbovil pashshalar tutilib, shundan *M.domestica* (13,06%), *M.autumnalis* (12,64%), *S.calcitrans* (8,05%), *L.titillans* (7,72%), *L.irritans* (7,74%), *M.simplex* (8,5%) dominant, *M.tempestiva* (6,4%), *M.vitripennis* (5,75%), *H.dentipes* (7,06%), turlari – subdominant turlar sifatida va qolgan 5 turi *M.osiris* (5,41%), *L.sericata* (4,55%), *M.larvipara* (3,42%), *M.lucidula* (4,1%), *Muscidae sp.n.* (5,55%) kam sonli turlar sifatida qayd etildi.

1-jadval

### Zoobiotsenozlarda sinbovil hasharotlarning tarqalish holati

№	Oila nomlari	Avlodlar soni	Turlar soni	Barcha yig‘ilgan sinbovil hasharotlar soni	Dominantlik indeksi, % da
1	Muscidae	5	13	3352	95,44
2	Calliphoridae	1	1	160	4,56
	<b>Jami</b>	<b>6</b>	<b>14</b>	<b>3512</b>	<b>100</b>

Bunda, tekshirish uchun yig'ilgan jami hasharotlarning 95,44 foizini *Muscidae* oilasi vakillari (turlari) tashkil qilib dominantlik qildi. Qolgan hasharotlarning 4,56 foizi Calliphoridae oilasi vakillari ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Yaylovlar sharoitida qoramollarda parazitlik qilib, mahsuldorligini pasaytirayotgan sinbovil pashshalar entomologik tutqich (doka tutqich) yordamida tutilib, laboratoriya sharoitida aniqlagich adabiyotlar va jadvallar hamda mikroskop (MBS) yordamida ularning tipi, sinfi, turkumi, oilasi, avlodi va turi aniqlanib borildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bob "**Sinbovil pashshalar biologiyasi**" deb nomlangan ikkinchi qismida yaylovlar sharoitida ko'p uchraydigan sinbovil pashshalar turlarining biologiyasi haqida ma'lumotlar keltirildi. Jumladan, kuzgi iskab topar pashsha - *Stomoxys calcitrans* L., qoramollarning kichik sigir iskab topar pashshasi - *Lyperosia irritans* L., uy pashshasi - *Musca domestica* L., *Lucilia sericata* Mg. biologiyasi bayon qilingan.



1-rasm. *M.domestica* ning mikroskopda morfologik ko'rinishi



2-rasm. *S.calcitrans* ning mikroskopda morfologik ko'rinishi

Pashshalar – to'liq metamorfozga uchragan hasharotlardir. Ularning rivojlanishi 4 bosqichda o'tadi ya'ni tuxum, lichinka, g'umbak va imago. Tirik tug'uvchi pashshalar o'z rivojlanishini lichinka bosqichidan boshlaydi. Imago davridagi pashshalar g'umbakdan chiqqanidan 5-7 kun o'tgach jinsiy yetuk bo'ladi, juftlashadi va butun umri davomida (1-1,5 oy) tuxum qo'yadi yoki lichinka tug'adi. Bir vaqtning o'zida urg'ochi pashshalar 100-150 tagacha tuxum qo'yadi. Bitta urg'ochi pashsha umri davomida 6-8 martagacha tuxum qo'yadi. Pashshalar har xil substratlarga ya'ni go'ng, silos, ozuqa qoldiqlari, najas va boshqa organik moddalarga tuxum qo'yadi. Qulay sharoitlarda tuxumdan bir kun ichida lichinkalar chiqadi va 10-20 sm chuqurlikda, 50-80% namlikda substrat yuzasi ostida yashaydi. Lichinkalar organik moddalar bilan oziqlanadi. Lichinka fazasining davomiyligi 3-7 kun. Bu vaqt ichida lichinka uch marta tullanadi, so'ngra quruqroq joylarga o'tib g'umbakka aylanadi. G'umbaklik bosqichining rivojlanishi o'rtacha 4-7 kun davom etadi. Bu davrda g'umbaklar harakatsiz bo'lib oziqlanmaydi. G'umbakdan chiqqan hasharotlar avval sudralib yuradi va bir necha soatdan keyin ucha boshlaydi. Pashshalarning rivojlanish vaqti va davomiyligi asosan haroratga bog'liq. 25 °C da haroratda tuxumdan to imago davrigacha bo'lgan butun rivojlanish sikli 2-3 hafta ichida yakunlanadi.

Uchinchi bobning “**Sinbovil pashshalarning kunlik faolligi**” deb nomlangan uchinchi qismida Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari yaylovlari sharoitida sinbovil pashshalar entomologik tekshirilib kunlik faolligi o‘rganildi. Bu turlarning kunlik faollik davomiyligi bevosita harorat omillariga chambarchas bog‘liq. Mart, aprel oylarida havo harorati 12-20 °C bo‘lganda bu turlarning faolligi soat 8 dan 11 gacha sust bo‘ldi, soat 12 dan 15<sup>00</sup> gacha o‘ta faol bo‘ldi. Yoz faslida havo harorati 29-36 °C bo‘lganda sinbovil pashshalarning faolligining 2 fazasi kuzatildi ya’ni ertalab va kechqurun. Soat 12 dan 17<sup>00</sup> gacha faolligi keskin kamaydi. Sinbovil pashshalar uchun normal havo harorati 22-28 °C bo‘lganda qoramollar tanasida yuqori faollikni ko‘rsatdi.

*Stomoxys calcitrans* aprel oyida yaylovlarda 14 nusxada uchradi. May oyida 32 nusxada, iyun oyida 56 nusxada uchrab, soat 9<sup>00</sup> da qoramol tanasida kuzatilib soat 17 – 19 gacha kuzatildi. Eng faol parazitlik qilish vaqti soat 11 va 13 oralig‘ida kuzatildi. Bu entomologik ma’lumotlar yaylovlarda qoramollar tanasida sinbovil pashshalarning faol vaqtini va ularga qarshi kurashishning aniq vaqtini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur bobning “**Sinbovil pashshalarning mavsumiy dinamikasi**” deb nomlangan qismida tadqiqot o‘tkazilgan hududlardagi yaylovlarda boqiladigan shaxsiy qaramog‘dagi qoramollar tanasida parazitlik qiladigan sinbovil hasharotlar entomologik tekshiruvdan o‘tkazildi. Bu qoramollarda parazitlik qilayotgan sinbovil pashshalar entomologik tutqich (doka tutqich) yordamida ko‘plab nusxalarda tutilib, laboratoriya sharoitida aniqlagich adabiyotlar va jadvallar hamda mikroskop (MBS) yordamida ularning tipi, sinfi, turkumi, oilasi, avlodi va turlari bilan birgalikda mavsumiy dinamikasi ham aniqlanib borildi (2-jadval).

2-jadval

**Samarqand viloyati Payariq va Nurobod tumanlaridagi yaylovlarda uchragan sinbovil hasharotlarning mavsumiy dinamikasi**

№	Sinbovil hasharotlar turlari	I-II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	Jami	%
		soni											soni	
1	<i>L.titillans</i>	-		-	28	51	63	56	41	26	6	-	271	7,72
2	<i>L.irritans</i>	-		-	24	52	67	58	40	23	8	-	272	7,74
3	<i>S.calcitrans</i>	-		14	32	56	64	53	38	19	7	-	283	8,05
4	<i>M.domestica</i>	-	25	53	61	70	87	74	46	28	15	-	459	13,06
5	<i>M.autumnalis</i>	-	23	46	58	74	92	72	44	23	12	-	444	12,64
6	<i>M.tempesta</i>	-		-	20	45	54	48	32	16	10	-	225	6,4
7	<i>M.vitripennis</i>	-		-	17	38	49	41	31	18	8	-	202	5,75
8	<i>M.simplex</i>	-		-	19	65	73	61	48	24	9	-	299	8,5
9	<i>H.dentipes</i>	-		-	21	51	62	53	38	17	6	-	248	7,06
10	<i>M.osiris</i>	-		-	6	39	56	42	29	14	4	-	190	5,41
11	<i>L.sericata</i>	-		-		32	48	37	24	12	7	-	160	4,55
12	<i>M.larvipara</i>	-		-		27	39	28	18	8	-	-	120	3,42
13	<i>M.lucidula</i>	-		-		31	46	34	22	11	-	-	144	4,1
14	<i>Muscidaesp.n.</i>	-	13	17	21	40	48	31	18	7	-	-	195	5,55
	<b>Jami:</b>												<b>3512</b>	

Bu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yaylovlardan jami tutib kelingan 3512 ta sinbovil hasharotlarning *Lyperozia titillans Bezzi*. Qoramollarning janubiy iskab topar pashshasi turi may oyida 10,33%, iyun oyida 18,82%, iyul oyida 23,25%, avgust oyida 20,66%, sentyabr oyida 15,13%, oktyabr oyida 9,59%, noyabr oyida 2,21% uchrashi qayd qilindi.

*L.irritans* turi yilning mart va aprel oylaridagi tekshirishlarimizda uchramadi. May oyida 8,82%, iyun oyida 19,12%, iyul oyida 24,63%, avgust oyida 21,32%, sentyabr oyida 14,70%, oktyabr oyida 8,45% va noyabr oyida 2,94% darajasida uchradi.

*S.salcitrans* turi mart oyidagi tekshirishlarimizda uchramadi. Aprel oyida 4,95%, may oyida 11,31%, iyun oyida 19,78%, iyul oyida 22,61%, avgust oyida 18,73%, sentyabr oyida 13,43%, oktyabr oyida 6,71%, noyabr oyida 2,47% miqdorida uchradi.

*M.domestica* pashshai tekshirishlarimizda yilning mart oyida 5,45%, aprel oyida 11,55%, may oyida 13,28%, iyun oyida 15,25%, iyul oyida 18,95%, avgust oyida 16,12%, sentyabr oyida 10,02%, oktyabr oyida 6,10%, noyabr oyida 3,26% miqdorida uchradi. Mazkur hasharot turi qish faslidagi o‘rganishlarimizda uchramadi.

*Musca autumnalis Deg.* Dala pashshasi tekshirishlarimizda yilning mart oyida 5,18%, aprel oyida 10,36%, may oyida 13,06%, iyun oyida 16,67%, iyul oyida 20,72%, avgust oyida 16,22%, sentyabr oyida 9,91%, oktyabr oyida 5,18% va noyabr oyida 2,70% uchragan bo‘lsa, qish faslidagi o‘rganishlarimizda umuman uchramadi.

*Musca tempestiva Flln.* turi tekshirishlarda yilning mart, aprel oylarida uchramadi. May oyida 8,89%, iyun oyida 10,13%, iyul oyida 24%, avgust oyida 21,33%, sentyabr oyida 14,22%, oktyabr oyida 7,11% va noyabr oyida 4,44% darajasida uchradi.

*M.vitripennis* turi yilning mart va aprel oylaridagi tekshirishlarimizda uchramadi. May oyida 8,41%, iyun oyida 18,81%, iyul oyida 24,25%, avgust oyida 20,29%, sentyabr oyida 15,34%, oktyabr oyida 8,91%, noyabr oyida 3,96% miqdorida uchradi.

*M.simplex* turi yilning mart va aprel oylaridagi o‘rganishlarimizda uchramadi. May oyida 6,35%, iyun oyida 21,74%, iyul oyida 24,41%, avgust oyida 20,40%, sentyabr oyida 16,05 %, oktyabr oyida 8,02%, noyabr oyida 3,01% miqdorida uchradi.

*H.dentipes* turi yilning mart va aprel oylardagi tekshirishlarimizda uchramadi. May oyida 8,46%, iyun oyida 20,56%, iyul oyida 25%, avgust oyida 21,37%, sentyabr oyida 15,32%, oktyabr oyida 6,85%, noyabr oyida 2,42% darajasida uchradi.

*Musca osiris Wd.* turi ham yilning mart va aprel oylarida uchramadi. May oyidagi tekshirishlarimizda 3,16%, iyun oyida 20,52%, iyul oyida 29,47%, avgust oyida 22,10%, sentyabr oyida 15,26%, oktyabr oyida 7,36%, noyabr oyida 2,10% uchradi.

*L.sericata* turi qish va bahor fasllarida uchramadi. Iyun oyida 20%, iyul oyida 30%, avgust oyida 23,12%, sentyabr oyida 15%, oktyabr oyida 7,5%, noyabr oyida 4,37% darajasida uchradi.

*Musca larvipara* Portschi. Tirik tugʻuvchi dala pashshasi yilning qish va bahor fasllarida deyarli qayd qilinmadi. Iyun oyida 22,5%, iyul oyida 32,5%, avgust oyida 23,33%, sentyabr oyida 15%, oktyabr oyida 6,67% uchragan boʻlsa, noyabr oyida esa uchramadi.

*M.lucidula* turi yilning qish va bahor fasllarida uchramadi. Iyun oyida 21,53%, iyul oyida 31,94%, avgust oyida 23,61%, sentyabr oyida 15,27%, oktyabr oyida 7,64% miqdorida uchragan boʻlsa, noyabr oyida esa zararkunanda uchramadi.


*Muscidae sp.n.* turi yilning mart oyidagi tekshirishlarimizda 6,67%, aprel oyida 8,72%, may oyida 10,76%, iyun oyida 20,51%, iyul oyida 24,61%, avgust oyida 15,89%, sentyabr oyida 9,23%, oktyabr oyida 3,58% uchragan boʻlsa. Noyabr oyida hamda qish oylarida mazkur zararkunanda uchramadi.

Tadqiqotlar davomida oʻrganilgan namunalardan aniqlangan jami 14 turdagi hasharotlar orasida 5 turi *Lyperosia titillans*, *Lyperosia irritans*, *Stomoxys calcitrans*, *Musca domestica*, *Musca autumnalis* turlari - dominant turlar ekanligi aniqlandi. Veterinariya-sanitariya, epizootologik ahamiyatga ega boʻlgan 4 tur esa subdominant turlar va 5 tur esa noyob turlar sifatida qayd qilindi.

Aniqlangan bu turlarning aksariyati qishloq xoʻjalik hayvonlarining infeksiyon va invazion kasalliklarining mexanik tarqatuvchilari ekanligi fanda aniqlangan.

Samarqand viloyati yaylovlarida aniqlangan sinbovil hasharotlar mavsumiy dinamikasi oʻrganildi. Bunda jami 3512 nusxa pashshalar tutilib, ularning morfologik koʻrsatkichlariga qarab turlari va sistematikasi aniqlandi. Qish faslidagi oʻrganishlarimizda sinbovil hasharotlar uchramaganligi sababli, qish faslini maʼlumoti diagrammada keltirilmadi. Tekshirishlarimiz natijasida bahor faslida 498 nusxa (14,17%), yoz faslida 2207 nusxa (62,84%) va kuz faslida 807 nusxa (22,97%) sinbovil hasharotlar uchrashi kuzatildi (3-rasm).

Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi “ChIRKAY” chorvachilik fermer xoʻjaligida ham sinbovil pashshalarni oʻrganish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Ushbu chorvachilik fermer xoʻjaligida 52 bosh qoramollar mavjud boʻlib, ularning tanasida parazitlik qiluvchi ektoparazitlar, yaʼni sinbovil hasharot turlarining faunasi, morfologiyasi, mavsumiy dinamikasi hamda sistematikasi oʻrganildi.



***Samarqand viloyati Payariq va Nurobod tumanlari yaylovlarida aniqlangan sinbovil hasharotlar mavsumiy dinamikasi***

Har ikkala fermer xo‘jaliklaridagi qoramollarda parazitlik qilayotgan va ularni kuchli bezovtalantirayotgan sinbovil pashshalar entomologik tutqich (doka tutqich) yordamida tutildi va laboratoriya sharoitida ularning turlari aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

**Qashqadaryo viloyati Kitob, Chiroqchi tumanlari yaylov hududlarida sinbovil hasharotlarning mavsumiy dinamikasi**

№	Hasharotlar turlari	I-III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	Jami	%
		soni										soni	
1	<i>L. titillans</i>	-	15	41	72	77	74	56	32	16	-	383	8,79
2	<i>L. irritans</i>	-	13	35	80	83	74	53	34	14	-	386	8,86
3	<i>S. calcitrans</i>	-	21	31	77	81	72	58	41	12	-	393	9,02
4	<i>M. domestica</i>	-	37	58	111	119	106	72	42	18	-	563	12,92
5	<i>M. autumnalis</i>	-	42	55	106	113	102	69	43	16	-	546	12,53
6	<i>M. tempestiva</i>	-	-	34	60	72	63	42	28	12	-	311	7,13
7	<i>M. vitripennis</i>	-	-	25	58	64	54	36	19	8	-	264	6,06
8	<i>M. simplex</i>	-	-	31	63	74	58	34	16	4	-	280	6,43
9	<i>H. dentipes</i>	-	-	31	53	61	48	29	17	-	-	239	5,48
10	<i>M. osiris</i>	-	-	29	44	56	41	26	14	4	-	214	4,91
11	<i>L. sericata</i>	-	-	15	49	54	43	28	14	6	-	209	4,79
12	<i>M. larvipara</i>	-	-	-	60	66	54	32	12	-	-	224	5,14
13	<i>M. lucidula</i>	-	-	-	46	53	38	19	13	-	-	169	3,87
14	<i>Muscidaesp.n.</i>	-	13	20	36	42	39	16	9	-	-	175	4,02
	<b>Jami:</b>											<b>4356</b>	

Qashqadaryo viloyati yaylovlarida olib borilgan tadqiqotlarda sinbovil hasharotlarning mavsumiy dinamikasi o‘rganildi. Bunda jami bo‘lib 4356 nusxa pashsha tutilib, ularni morfologik ko‘rsatkichlariga qarab ularning turlari va sistematikasi aniqlandi.

Ushbu ikkita fermer xo‘jaliklari va yaylovlar sharoitida olib borilgan entomologik tekshiruvlar natijasiga ko‘ra, sinbovil hasharotlar qoramollar tanasida yilning may, iyun, iyul, avgust va sentyabr oylarida maksimal darajada uchrashi kuzatildi.

Tadqiqotlar davomida aniqlangan 14 turdagi *Musca domestica*, *Musca autumnalis*, *Lyperosia titillans*, *Lyperosia irritans*, *Stomoxys calsitrans*, *M. tempestiva*, *M. vitripennis*, *M. simplex*, *H. dentipes*, *M. osiris*, *L. sericata*, *M. larvipara*, *M. lucidula*, *Muscidae sp.n.* sinbovil pashshalarining barchasi yilning qish faslida va mart oyida yuqorida ta’kidlangan fermer xo‘jaliklari va yaylovlarda uchrashi qayd etilmadi.


Chorvachilik fermalari va yaylovlarida qoramollar sinbovillaridan *Musca domestica*, *Musca autumnalis*, *Lyperosia titillans*, *Lyperosia irritans*, *Stomoxys calsitrans* va *Muscidae sp.n.* turlarining faolligi aprel oyidan boshlanishi, *M. tempestiva*, *M. vitripennis*, *M. simplex*, *H. dentipes*, *M. osiris* va *L. sericata* turlarining faolligi may oyidan, *M. larvipara* va *M. lucidula* turlarining faolligi esa iyun oyidan boshlanishi aniqlandi.

Chorvachilik fermalari va yaylovlarida qoramollar sinbovillari faolligini eng maksimum darajaga chiqishi yilning iyun-avgust oylarida kuzatilishi aniqlanib, bu davrda ularning bir bosh qoramol tanasidagi soni eng yuqori darajaga chiqadi.

Jumladan, ularning bitta hayvon tanasidagi soni iyun oyida 106-111 nusxagacha, iyul oyida 113-119 nusxagacha, avgust oyida 102-106 nusxagacha ko‘payadi.

Tadqiqotlar davomida chorvachilik fermalari va yaylovlarida qoramollar sinbovillarining faolligi asosan noyabr oyidan boshlab pasaya borib, dekabr oyidagi tekshirishlarimizda ular deyarli uchramadi. Shu bilan birgalikda kuzatishlarimiz davomida *H.dentipes*, *M.larvipara*, *M.lucidula* va *Muscidae sp.n.* turlarining faolligi oktyabr oyida pasayib, noyabr oyidagi o‘rganishlarimizda ular uchramadi.

Mazkur xo‘jaliklarda sinbovil hasharotlarning mavsumiy dinamikasi



